

Ichki Ishlar Organlari Mehnat Faoliyatini Boshqaruv Tizimini Takomillashtirishning Asosiy Yo'nalishlari

Abdullayev G'ayrat Juman o'g'li

IIV Ma'naviy ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti bosh inspektori, podpolkovnik

IIO tizimida amalga oshirilgan islohotlar, avvalo, sohada o'tgan yillarda ko'rilgan keng ko'lamlı choralarning mantiqiy davomi va shu bilan birga, IIONing ayrim vazifa va funksiyalarini aniqlashtirish, yangi bo'linmalar faoliyatini tashkil etish, IIONing jamoatchilik bilan hamkorligini yanada kengaytirish va mustahkamlash bilan bog'liq vazifalarning ijrosini o'zida ifodaladi.

Shu bilan birga, IIONi yanada takomillashtirish, doimo xalq bilan birga bo'ladigan, xalqning og'irini yengil, mushkulini oson qiladigan, tinchlik va osoyishtalik hamda qonun ustuvorligining kafili bo'ladigan chinakam xalqchil va xalqparvar tizimga aylantirish borasida hali oldinda vazifalar turganligini e'tirof etish zarur. Binobarin, IIO tizimini yanada takomillashtirish borasida kelgusidagi vazifalar yuzasidan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2020 yil 25 yanvar kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «...islohotlarni davom ettirib, ichki ishlar idoralarini odamlarimizning og'irini yengil qiladigan tuzilmaga aylantirish zarurligini yana bir bor takrorlash o'rinli, deb bilaman.

Bu masala yangi parlament, xususan, Senat oldidagi besh yillik vazifa bo'lib, buning uchun barcha tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratish va amaliy choralar ko'rish lozim.

IIO uchun barcha darajadagi rahbarlar-ning malakasini oshirish va maqsadli tayyorlash tizimini tashkil etish zarur»¹.

Ichki ishlar vazirligi tizimi, vazifalari, funksiyalari hamda faoliyat yo'nalishlariga ko'ra eng yirik huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, IIO o'z kompetensiyalariga ko'ra, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qaraganda birmuncha «universallroq» xarakterga ega.

Tahlillar va o'rganishlar asosida IIO boshqaruv tizimini quyidagi yo'nalishlar asosida takomillashtirish taklif etiladi:

birinchi yo'nalish, IIO tizimda xodimlarning ish faoliyatini eski «qolip»lar asosida tashkil etishga butunlay barham berib, ularning xizmat burchini xalq manfaatlariga xizmat qilish tamoyili asosida bajarishini amalda to'liq ta'minlash.

Ma'lumki, tizimda tartib-intizom va mas'uliyatning bo'shashtirib yuborilishi, faoliyatning zamon talablari asosida tashkil etilmasligi, xizmat vazifasiga loqaydlik va beparvolik bilan munosabatda bo'lish kabi holatlar jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatidagi umumiy natijadorlikka jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu xususda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2017 yil 9 fevral kuni o'tkazilgan IIO faoliyati, tizimda mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida to'g'ri ta'kidlangan edi:

➤ inson manfaatları bilan bog'liq masalalarnı kechiktirmasdan hal qilish lozim bo'lgan hozirgi kunda **eskicha fikrlash, ishni eski «qolip»lar asosida tashkil qilish**, o'z burchini elga xizmat

¹ <https://kun.uz/news/2020/01/24/bu-idoralar-xalqchil-emas-prezident-ichki-ishlar-organlari-haqida>

tamoyiliga asoslanib emas, balki shaxsiy manfaatlardan kelib chiqqan holda bajarish kabi amaliyotlar davom etmoqda;

- IIO shunday ishlashi kerakki, toki xalq davlatdan rozi bo'lsin. Lekin ayrim joylarda ularning faoliyati odamlar e'tiroziga sabab bo'lmoqda;
- **tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik** har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi, muammolarni **kabinetda o'tirib emas, balki xalq orasida yurib** aniqlashga va ularning yechimini topishga qaratish, yakuniy natija uchun rahbarlarning shaxsiy javobgarligini oshirish, fuqarolar murojaatlarini qisqa muddatlarda hal qilish, ishda aniq tartib va qat'iy intizom o'rnatish, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash, ishdagi har qanday salbiy holatlarning oldini olish va bunday illatlar ildizini quritish – IIONing ustuvor vazifasi hisoblanadi;
- murojaatlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish eng dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois fuqarolar bilan munosabatlarni tubdan qayta ko'rib chiqish, odamlar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish, **xalq bilan hamnafas bo'lib yashash** va inson manfaatlaridan kelib chiqib ishlash lozim².

Shuningdek, davlatimiz rahbari 2020 yil 25 oktyabrda «Ichki ishlar organlari xodimlari kuni» munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan bayram tabrigida ham rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini chuqur o'rgangan holda, amaliy faoliyatga yangicha ish uslublari va mexanizmlarini tatbiq etish lozimligi haqida to'xtalib o'tgan edi³.

Shuning uchun mahallama-mahalla, uyma-uy yurib, odamlarning hayotiy muammolarini bevosita o'rganish va ularni qonuniy asosda hal qilinishiga amaliy yordam ko'rsatish ishlarini tizimli ravishda amalga oshirish – xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish borasidagi asosiy talablardan hisoblanadi.

«Ishga yangicha yondashish, oddiy odamlarning dardi va tashvishi bilan yashash, fidoyilik va jonkuyarlik ko'rsatish ijro hokimiyatining barcha bo'g'indagi rahbar va mutasaddilari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi zarur». «...O'z zimmasidagi vazifalarni bajarish, zarur natijaga erishishni ta'minlamagani uchun turli bo'g'indagi rahbarlarni almashtirish, zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan, Vatanga sadoqatli, fidoyi yoshlarga mas'uliyatli lavozimlarni ishonib topshirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda»⁴.

IIO boshqaruv tizimini takomillashtirishda IIO faoliyatini **reyting orqali baholashning ta'sirchan tizimini** joriy qilish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2017 yil 9 fevral kuni o'tkazilgan IIO faoliyati, tizimda mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ichki ishlar bo'limlari faoliyatini reyting orqali baholash tizimini joriy etish bo'yicha ham tavsiyalar berilgan edi⁵.

Ayni paytda reyting tizimi kimning qanday ishlayotganligini, iqtidori nimalarga qodirligini, kasbiy mahoratini ko'rsatadi.

IIO faoliyatini reyting orqali baholashning ta'sirchan tizimining utuvor xususiyatlari quyidagilardan iborat:

IIONing tarkibiy tuzilmalari va xodimlari faoliyatiga muayyan davr oralig'ida bajargan ishlarining sifat va miqdor ko'rsatkichlari, erishgan yutuqlari hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni hisobga olgan holda haqqoniy baho berish imkonini beradi;

² Инсон манфаатларини таъминлаш учун, аввало, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, осуда ва фаровон ҳаёти ҳимоя қилинмоғи керак // Халқ сўзи. – 2017. – 10 фев.

³ Шавкат Мирзиёевнинг ички ишлар ходимларини касб байрами муносабати билан байрам табриги (2020 йил 25 октябрь)

⁴ Шавкат Мирзиёев: биз ўз олдимизга қўйган, эл-юртимиз қутаётган натижаларга ҳали тўла эриша олганимиз йўқ // Халқ сўзи. – 2017. – 29 нояб.

⁵ Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, осуда ва фаровон ҳаёти ҳимоя қилинмоғи керак // Халқ сўзи. – 2017. – 10 фев.

IIONing tarkibiy tuzilmalari va xodimlari o‘rtasida sog‘lom raqobatni vujudga keltiradi;

IIONing tarkibiy tuzilmalari va xodimlariga erishgan natijalariga ko‘ra adolatli ta‘sir ko‘rsatishning shaffof tizimini vujudga keltiradi;

yuqori natijalarga erishgan IIONing tarkibiy tuzilmalari va xodimlarini rag‘batlantirish orqali ularni yanada yuqori natijalarni qayd etishga hamda past natijaga erishgan tarkibiy tuzilmalari va xodimlarga ta‘sir etish orqali ularni ham yuqori natijalarga erishishga undaydi.

Shuningdek, ichki ishlar organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, qog‘ozbozlik va rasmiyatchilikni bartaraf etish, ortiqcha hujjatlar aylanishini yanada qisqartirish, ko‘p sonli majlislar va yig‘ilishlar o‘tkazish, asoslanmagan hisobot va axborot-ma‘lumotnoma tarzidagi materiallarni so‘rash amaliyotini keskin cheklash yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bunda xodimlar uchun topshiriqlar berish, ular oldiga vazifalar qo‘yish kabilar xodimlarni bevosita majlisga taklif etmasdan, ish jarayonidan chalg‘itmagan holda amalga oshirilishiga alohida e‘tibor qaratish kerak.

IIO tizimda xodimlarning ish faoliyatini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish, ularning xizmat burchini **xalq manfaatlariga xizmat qilish** tamoyili asosida bajarishini amalda to‘liq ta‘minlashda xizmat intizomini mustahkamlash alohida ahamiyatga ega. Xususan, bu borada A.S. Tursunov shunday ta‘kidlaydi: «IIO xodimlarini xizmatga sodiq bo‘lish, qonuniylik va xizmat intizomiga qat‘iy rioya qilish ruhida tarbiyalash borasida yagona yondashuvlarni joriy etish va uni quyidagi pog‘onalarda qo‘llash: birinchi pog‘onada – ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashda, ya‘ni IIV Akademiyasining kunduzgi ta‘limida va kasbiy tayyorgarlik fakultetida – ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan dastlabki kasbiy bilimlar berishni yuksak vatanparvarlik va ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, xizmatga sadoqat, yuksak ijrochilik intizomini shakllantirish bilan barga amalga oshirish; ikkinchi pog‘onada – ichki ishlar organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda – ijrochilik intizomiga oid bilim va malakalarini yanada mustahkamlash; uchinchi pog‘onada – ichki ishlar organlari xodimlarining bevosita xizmatdan ajralmagan holda – ijrochilik intizomiga oid bilim va malakalarini shakllantirish yanada mustahkamlash»⁶.

IIO har bir xodimning KPI (Key Performance Indicator – samaradorlikning asosiy indikatorlari)ni aniqlash, xodimlarni saralash mezonlarini ko‘rib chiqish, kadrlar tayyorlashning zamonaviy bazasini yaratish, IIO xizmatiga ishga olishning shaffof tizimini yaratish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, amaldorlar daromadlarini deklaratsiya qilishning normal tizimini yaratish lozim.

ikkinchi yo‘nalish, IIOda rag‘batlantirishning jamoaviy shakllarini keng joriy etish.

Bugungi kunda IIO xodimlarini xizmatdagi yutuqlari va erishgan natijalaridan kelib chiqib rag‘batlantirish tizimi individual xarakterga ega bo‘lib, u faqat rag‘batlantirilgan xodimning o‘zigagina ta‘sir qiladi. Fikrimizcha, yuqori natijalarga erishgan tarkibiy tuzilmalarni ham (jamoaviy tarzda) rag‘batlantirish shakllarini joriy etish lozim. Bu esa tegishli tarkibiy tuzilmaning jips bo‘lib, birligidan harakat qilishiga undaydi.

Har yili «Yilning eng yaxshi IIO jamoasi» nominatsiyalari bo‘yicha respublika tanlovini o‘tkazish, bunda tanlov natijalariga ko‘ra, «Yilning eng yaxshi IIO jamoasi»ni «25 oktyabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni»ni nishonlash chog‘ida e‘lon qilish. «Yilning eng yaxshi IIO jamoasi»ni a‘zolarini byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan g‘oliblarni har oylik pul ta‘minotining 50 foizgacha miqdorda bir yil davomida moddiy rag‘batlantirish tartibini joriy etish hamda ularning xizmat vazifalarini bajarish natijalarini keng targ‘ib etish;

uchinchi yo‘nalish, IIO faoliyatiga baho berish, kuch va vositalarni boshqarish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqamlar ortidan quvish amaliyotini bekor qilish.

⁶Tursunov A.S. Ichki ishlar organlarida xizmat intizomini mustahkamlashning ayrim masalalari // Ichki ishlar organlarida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta‘minlash mexanizmi: bugungi holati va istiqbolari: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (2020 yil 4 mart). – T., 2020. – B. 48.

IIO boshqaruv tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan va xodimlarni jinoyatni ochish o'rniga uni yashirishga majbur qilayotgan va huquqbuzarlarning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga sharoit yaratayotgan asosiy omillardan biri – jinoyatchilikka doir statistik ko'rsatkichlarning o'sishini sun'iy ravishda to'xtatib turish (sodir etilgan jinoyatlarni aniqlamaslik, ro'yxatga olmaslik) hisoblanadi.

Bunday salbiy holatlarga barham berish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rish, xususan, jinoyatchilik ko'rsatkichlariga doir statistik hisobotlarni yuritishda IIO tashabbusi bilan aniqlangan jinoyatlarni alohida ko'rsatish hamda bunday jinoyatlar aniqlanishining ortib borishiga ijobiy baho berish va rag'batlantirishga qaratilgan yangicha ish uslubini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

Bunda jinoyatlar va huquqbuzarliklarning sodir etilishi ko'rsatkichining oshib ketganligiga hech qanday tahliliy va atroflicha o'rganishlarsiz salbiy holat sifatida baho berish amaliyotidan butunlay voz kechish shart.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «...raqamlar ketidan quvish amaliyotidan voz kechish lozim. Qog'ozda yuzlab masalalarni hal qilgandan ko'ra, amalda bir nechta muammoni hal qilib bersangiz, odamlar sizlardan rozi bo'ladi.

Eng muhimi, hayotdagi o'zgarishlarni xalqimiz bilishi, davlat hokimiyati tizimida haqiqatda ham o'z vakili borligini sezishi kerak. Bo'lmasa, barcha ishlarimiz, tadbirlarimiz zoe ketadi»⁷.

Bugungi kunda biriktirilgan hududda jinoyat sodir etilishi profilaktika inspektorlari faoliyatini baholashning salbiy ko'rsatkichi sifatida baholanadi. Biroq barcha hollarda ham biriktirilgan hududda jinoyat sodir etilishini salbiy ko'rsatkich sifatida baholash adolatdan emas. Chunki, shunday jinoyatlar bo'ladiki, ularning oldini olishning imkoni bo'lmasdigi mumkin. Masalan, to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlarning oldini olishning imkoni bo'lmaydi.

Bizning nazarimizda, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar sodir etilgandagina salbiy ko'rsatkich sifatida baholanishi lozim. Shundan kelib chiqib, "oldi olinishi mumkin bo'lgan" tushunchasiga quyidagi ta'rif berish taklif etiladi: "Oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyat –g'ayriijtimoiy xulq-atvori oldindan ma'lum bo'lgan hamda profilaktik ishlar olib borilishi lozim bo'lgan shaxs tomonidan qasddan sodir etilgan jinoyat". Mazkur tushunchani O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 14 mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuniga ham kiritish lozim.

to'rtinchi yo'nalish, IIO tizimidagi o'ta markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechish lozim.

«Davlat boshqaruvini haddan tashqari markazlashtirishdan voz kechish zarur. Buning uchun ko'pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlarga o'tkazish kerak»⁸.

«Davlat xizmatlarini bevosita quyi bo'g'inlarda ko'rsatish, mahalliy hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni kengaytirish zarur. Bu borada mavjud tartib-taomillarni optimallashtirish va soddalashtirish, boshqaruvning innovatsion shakllarini joriy etish lozim»⁹.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «hozirgi kunda eng katta masala, bu – ichki ishlar tizimining quyi bo'g'inini mustahkamlashdan iborat»¹⁰.

«Hozirgi kunda IIO idoralarining o'ta markazlashgan holda joylashuvi ularning o'z vazifalarini samarali hal qilish imkonini bermayapti.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – 2017. – 23 дек.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – 2017. – 23 дек.

⁹ Ўша манба.

¹⁰ Одамларнинг бунёдкорона меҳнатини кадрлаб, уларга муносиб турмуш шароити яратиш – энг муҳим вазифамиздир // Халқ сўзи. – 2017. – 18 нояб.

Bu, bir tomondan, jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi pasayishiga olib kelayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, aholiga o'z muammosini hal qilishda noqulaylik tug'dirmoqda.

Biz IIO xodimlarini xalqqa yanada yaqinroq qilish maqsadida **xodimlarning asosiy qismi bevosita joylarda**, kerak bo'lsa, har bir sektor hududida xizmat olib borishini ta'minlashimiz kerak»¹¹.

IIOni boshqarish tizimini takomillashtirishda IIOning respublika, o'rta va quyi bo'g'indagi bo'linmalar o'rtasida asosiy vazifa va funksiyalarni aniq va optimal taqsimlash, tashkiliy-shtat tuzilmalari kuch va vositalardan oqilona foydalanish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasiga ko'ra, IIOning asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan. Biroq mazkur vazifalar umumiy mazmunga ega hamda bu borada boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham tegishli vazifalarni bajaradi. Boshqaruvda tegishli sub'ektlarning vazifa va funksiyalarining takrorlanishi ma'muriy va moliyaviy resurslarning ortiqcha sarflanishiga olib keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda IIOning asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat bo'lgani holda mazkur vazifalarni bevosita bajarmaydigan shtat birliklari soni ortib ketgan.

Bu borada avvalo vakolatlar taqsimotini qayta ko'rib chiqish lozim, kuch va vositalarni boshqarish, qarorlar qabul qilish, kadrlar bilan ishlash (xizmatga qabul qilish, maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum etish, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish va rotatsiya, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimning boshqa davlat organlari va tashkilotlariga saylanganida (tayinlanganida, safarbar etilganida) xizmat o'tashi, attestatsiya o'tkazish, ta'tillar berish, huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, xizmat o'tash rejimini ta'minlash, xizmat muddatlarini uzaytirish, xizmatdan bo'shatish va xizmatga tiklash), xo'jalik shartnomalarini imzolash kabi masalalarda quyi bo'g'inlarning vakolatlarini kengaytirish zarur.

Shuningdek, joylardagi kriminogen va ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, umumiy shtatlar doirasida tuman va shahar ichki ishlar organlarining tashkiliy-shtat tuzilmalarini shakllantirish va muntazam o'zgartirib borish amaliyotini joriy etish lozim. Shundan kelib chiqqan holda 2016 yil 16 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunining 13-moddasini quyidagi mazmundagi yettinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

“Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining asoslantirilgan takliflariga asosan kriminogen va ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, umumiy shtatlar doirasida tuman va shahar ichki ishlar organlarining tashkiliy-shtat tuzilmalarini muntazam o'zgartirib borilishi mumkin”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5050-son qarori bilan jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga yuklatilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bizning fikrimizcha mazkur tartibotni hududiy ichki ishlar organlari faoliyatiga nisbatan tatbiq etish maqsadga muvofiq. Chunki, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar respublikaning

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг халқ депутатлари Самарқанд вилояти Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясидаги нутқи // Халқ сўзи. – 2017. – 10 нояб.

istalgan hududlarida ham yuz berishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi hududiy ichki ishlar organlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, viloyat IIB) zimmasiga yuklatilishilozim.

beshinchi yo'nalish, IIO faoliyatiga innovatsion loyihalarni joriy etish¹²;

oltinchi yo'nalish, IIO boshqaruv tizimini raqamlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va tadbiiq etish.

Bugungi kunda barcha sohalarni jadal raqamlashtirish – rivojlanishning eng muhim shartlaridan biri sifatida kun tartibida turibdi. Shu jumladan, IIO boshqaruv tizimini ham raqamlashtirish – IIO faoliyatini tashkil etishning yangi mexanizmining asosiy tarkibiy elementi hisoblanadi.

IIO tizimini axborot texnologiyalarni joriy etish konsepsiyasini ishlab chiqish va unda IIO faoliyatini raqamlashtirish soha va yo'nalishlarini, shuningdek axborot texnologiyalarni to'lish joriy etish bosqichlarini belgilash lozim.

IIO tizimida lokal tarmoqlar va yagona himoyalangan korporativ tarmoqni rivojlantirish IIO ni raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish uchun telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda bunda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

IIO da elektron hujjat almashinuvi va himoyalangan elektron pochta yagona tizimini tatbiiq etish, dasturiy ta'minot yaratish;

ma'lumotlarni qayta ishlash yagona markazini yaratish va unga idoraviy ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarini integratsiya qilish;

idoraviy raqamli infratuzilmaning axborot xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, elektron hujjatlar va ma'lumotlarni himoya qilish;

IIO ning amaldagi axborot tizimlarini yagona platformaga o'zaro integratsiya qilish orqali IIV ning yagona avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimini joriy etish;

profilaktika ispektorlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritishni elektron platformaga o'tkazish;

yettinchi yo'nalish, IIO faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari etish.

Har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o'zida hal etish;

hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda «jinoyat o'choqlari» ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish;

«respublika – viloyat – tuman – mahalla» tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash;

ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish;

jinoyatlarning sodir etilishiga ta'sir qilayotgan omillar hamda kriminogen va ijtimoiy vaziyat tahliliga asosan mavjud kuch va vositalarni samarali taqsimlashning aniq mezonlarini va talablarini ishlab chiqish;

¹²Изоҳ: мазкур масала ишининг 3.2-параграфида батафсил баён этилган.

jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga ilmiy yondashuvlarni keng joriy etish;

Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari tajribalaridan kelib chiqib, IIO faoliyatiga kollektiv boshqaruvni elementlarini joriy etish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari huzurida Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar faoliyatini yo'lga qo'yish.

sakkizinchi yo'nalish, IIONing faoliyatini bosqichma-bosqichpolitsiya tizimiga o'tkazish.

«Politsiya» so'zi (lot. politia) «fuqarolik ma'muriyati», (grek. polis) «shahar» degan ma'nolarni anglatadi. Hozirgi kunda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Fransiya va boshqa qator davlatlarda IIO politsiya tizimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Politsiya tizimi quyidagi jihatlari bilan militsiya tizimidan farq qiladi:

- politsiyaning vakolat doirasi ancha keng. Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va boshqa asosiy vazifalar bilan bir qatorda, kommunikatsiya va servis xizmatlarini ko'rsatish, fuqarolar ishonchini qozonish va ular bilan yaqin hamkorlik qilish, jamoat tuzilmalari faoliyatiga ko'maklashish kabilar ham politsiyaning muhim vazifalari hisoblanadi. Jamoatchilik bilan mustahkam aloqa o'rnatilganligi politsiyaning jamoatchilik nazoratida bo'lishini ta'minlaydi;
- politsiya tizimi militsiya tizimiga qaraganda zamonaviy ko'rinishga ega bo'lib, davlatlarda uning markazlashgan (vertikal – Italiya, Ispaniya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Rossiya va h.k.), nomarkazlashgan (novertikal – AQSh, Kanada, Shveysariya, Avstraliya va h.k.) va integratsiyaviy (aralash – Avstriya, Buyuk Britaniya, Yaponiya) tizimi amalda faoliyat ko'rsatadi;
- korrupsiya holatlarini keltirib chiqarishga imkon beradigan ko'pgina vazifalar (avtotransport vositasiga davlat raqamini berish, ov qurolini saqlashga ruxsatnoma berish va h.k.) politsiya tizimida xodimlar tomonidan emas, balki zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotlari orqali amalga oshiriladi;
- politsiya tizimida xizmatga qabul qilinadigan xodimlarga qo'yiladigan talablar ancha yuqori. Nomzodlar maxsus tekshiruvlardan o'tkaziladi va ularning IIOda xizmat o'tashi bo'yicha qobiliyatlari har xil vaziyatlarda tekshirib ko'riladi. Ayrim davlatlarda nomzodlarning tasdiqlangan ssenariylar asosida 500 tagacha vaziyatlar bo'yicha qarorlar qabul qilish mahoratlari (turli vaziyatlarda o'zini tutishi, xizmat vazifalari bo'yicha qanday harakatlar bajarish mumkin yoki mumkin emasligi bo'yicha amaliy ko'nikmalari) sinovdan o'tkaziladi;
- politsiya tizimida xodimlarning vakolat doirasi ancha keng. Masalan, politsiya patrullik naryadlari transport vositalari haydovchilariga nisbatan yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirishi, gumon qilinuvchi shaxslarning hujjatlarini tekshirishi, shubhali buyumlarni musodara qilishi va boshqa vakolatlarni amalga oshirishi mumkin;
- politsiya tizimida departamentlar, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan holda tanlangan, zamonaviy maxsus texnik vositalar va o'qotar qurollar bilan jihozlangan patrullarning faoliyati samarali yo'lga qo'yilgan.

Tadqiqotlarda ham politsiya tizimining qator ustuvor jihatlari bayon etilgan. Xususan, D.M. Shalyagin politsiya tizimi huquq-tartibotni saqlashning eng optimal varianti ekanligini¹³, I.I. Mushket esa politsiya davlatning nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi, balki siyosiy funksiyalarini ham bajarishi va uning faoliyatida qonuniylik hamda yuqori samaradorlik asosiy

¹³Шалыгин Д.Д. Полиция США - организационные и правовые основы деятельности: диссертация ... кандидата юридических наук: Москва 1998. 175 с.

mezon ekanligini¹⁴, I.A. Gorsheneva esa zamoaviy davlatchilik tizimida politsiya huquq-tartibot, qonun ustuvorligi hamda adolatni qaror toptirishning eng optimal mexanizmi ekanligini ta'kidlaydi¹⁵.

Bir so'z bilan aytganda, ko'pchilik mutaxassislar politsiya tizimi deganda zamonaviy standartlar joriy etilgan IIO tizimini tushunishadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotida «militsiya» tushunchasi muomaladan chiqarilgan. Shu bois amalga oshirilgan islohotlar natijasida politsiya tizimining deyarli barcha xususiyatlari joriy etilganligini, «politsiya» xalqaro miqyosda umume'tirof etilgan tushuncha ekanligini inobatga olib, IIOni «politsiya» deb nomlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Qayd etish joizki, «militsiya» tushunchasi fuqarolarning tasavvurida ko'proq majburlovchi mexanizm, e'tirozlarga sabab bo'luvchi tizim sifatida salbiy fikr paydo qilardi. «Politsiya» tushunchasi esa o'zining zamonaviyligi va hozirgi kun talablariga to'liq javob berishi bilan aholi ongida ijobiy taassurot uyg'otadi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning ishonchi va mehrini qozongan, xalqparvar ichki ishlar tizimi yaratilishida salmoqli hissa qo'shadi.

«Oldimizga qo'ygan yuksak maqsad va rejalarimizni real natijaga aylantirish uchun hammamiz bor kuch va bilimimizni ayamasdan, fidokorona va vijdonan mehnat qilishimiz, tashabbus ko'rsatib ishlashimiz zarur.

Shuning uchun ham kelgusi ikki yil bizning faoliyatimizda **favqulodda safarbarlikni talab etadigan davr** bo'ladi va bu vazifani barchamiz sidqidildan bajarishni ta'minlashimiz, albatta, lozim. Xalqimiz bizdan shuni kutyapti»¹⁶.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan bu fikrlar bevosita ichki ishlar tizimi faoliyatiga ham tegishli. Demak, safarbarlik va islohotlar bu sohada ham jadal davom etadi.

¹⁴Полиция в механизме современного государства : Теоретико-правовые аспекты : диссертация ... кандидата юридических наук : 12.00.01. Москва, 2002. 237 с.

¹⁵ Мушкет И.И. Полиция в механизме Российского государства: кандидата юридических наук: Санкт-Петербург, 1997. 195 с.

¹⁶ Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. – 2017. – 1 сент.